

Jurnal tahririyatiga taqdim etiladigan ilmiy maqolaga qo‘yiladigan

TALABLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – OAK) Rayosatining qarori bilan ilmiy jurnal quyidagi ixtisosliklar bo‘yicha OAKga doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e‘lon qilish uchun tavsiya etiladigan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta‘limotlar tarixi.

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma‘muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi.

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq.

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Xo‘jalik protsessual huquqi. Hakamlilik jarayoni va mediatsiya.

12.00.05 – Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta‘minot huquqi.

12.00.06 – Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq.

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura.

12.00.08 – Jinoyat huquqi, huquqbuzarliklarning oldini olish. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.

12.00.10 – Xalqaro huquq.

12.00.11 – Parlament huquqi.

12.00.12 – Korrupsiya muammolari.

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha).

2. Ilmiy maqolaning hajmi (ilmiy maqolaning turiga qarab) 20-60 ming bosma belgi (taxminan 10 betdan 25 betgacha); formati – A4, kitob shaklida; hoshiyasi odatdagidek: chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm; shrift – Times New Roman, rangi – qora, shriftning kattaligi – 14; 1,15 oraliqda.

3. O‘zbek tilidagi maqolalar **lotin yozuvida**, shuningdek boshqa tillarda yozilgan maqolalarning annotatsiya va kalit so‘zlari ham **lotin yozuvida** bo‘lishi lozim.

4. Jurnalga taqdim etilayotgan ilmiy maqola boshqa nashrlarda chop etilmagan bo‘lishi, shuningdek, originallik darajasi (antiplagiat dasturi orqali tekshiriladi) **65** %dan kam bo‘lmasligi lozim.

5. Ilmiy maqolaning matni quyidagi tarzda rasmiylashtiriladi:

Yuridik fan yoʻnalishi: (masalan: Fuqarolik huquqi)

UDK:

ORCID:

MAQOLANING SARLAVHASI

Maqola muallifi (shu jumladan hammualliflar):
familiyasi, ismi, otasining ismi (toʻliq, pasport boʻyicha),
ilmiy darajasi (agar boʻlsa),
ish joyi (toʻliq),
lavozimi (toʻliq),
elektron pochta manzili, aloqa telefonlari.

Annotatsiya.

Kalit soʻzlar:

**Yuqorida koʻrsatilgan maʼlumotlar shu tartibda
oʻzbek, rus va ingliz tillarida boʻlishi kerak!**

MAQOLA MATNI

6. Sarlavha maqolaning eng muhim qismlaridan biri boʻlib, unda mavzu aniq aks etishi lozim. Sarlavha mavhum yoki umumiy fikrlar orqali bayon etilmasligi, akademik uslubda yozilishi, ilmiy izlanish mavzusi negizida yotgan asosiy muammo va masala(lar)ning taklif etiladigan yechimini ifodalashi zarur. Ilmiy maqola sarlavhasida qoʻllaniladigan soʻzlar miqdori 6-10 tadan oshmasligi kerak. Sarlavhada faqat umumqabul qilingan abbreviatura (qisqartma)larni qoʻllash mumkin.

7. Annotatsiyada tadqiqot mavzusining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari haqidagi maʼlumotlar keltirilishi zarur, yaʼni maqolaning qisqacha mazmuni va tavsifi beriladi.

Annotatsiya tarkibiy jihatdan maqola mazmunining quyidagi jihatlarni oʻz ichiga olishi kerak:

tadqiqotning predmeti, mavzusi, maqsadi, dolzarbligi, muammoning qoʻyilishi;
tadqiqot metodi/metodologiyasi;
ishning natijalari;
natijalarning qoʻllanish sohasi;
xulosalar.

Yuqoridagi kompozitsiya asosida annotatsiya bir butun matn koʻrinishida yoziladi, abzatslarga, boʻlimlarga ajratilmaydi.

Annotatsiya hajmi 150-250 ta soʻz atrofida boʻlishi lozim. Unda ortiqcha, keraksiz soʻzlarni ishlatish, batafsil tavsiflar keltirish, maqoladagi gaplardan nusxa

ko'chirish, sarlavhani aynan yozish, qisqartmalarni qo'llash, manbalarga havola (ssilka)lar keltirish mumkin emas.

8. Ilmiy maqolaning semantik o'zagi (asosi, mohiyati)ni tashkil qiluvchi kalit so'zlar tadqiqot mavzusini tavsiflash va ta'riflash uchun zarur sanaladigan muhim tushuncha va kategoriyalar ro'yxatidir. Amalda ushbu so'zlar internet tizimida maqolani izlab topishda yordam beradi. Shu boisdan ham ilmiy maqola(lar)ni tayyorlash vaqtida mavzuning semantik yadrosiga alohida e'tibor berish darkor.

Maqolaga beriladigan kalit so'zlar 6-8 ta atrofida bo'lib, umumiydan xususiya qarab tartiblangan bo'lishi, ya'ni mavzu va muammoga tegishli kalit so'zlardan boshlanib, tadqiqot obyekti va predmetiga taalluqlilari bilan tugallanishi lozim. Kalit so'zlar sifatida neologizmlar, uzun so'z birikmalar, gapning uyushiq bo'laklari ishlatilmaydi.

9. Ilmiy maqola matni quyidagi talablar asosida tayyorlanadi (matnda mazkur 5 ta qism nomi aynan qayd etiladi):

<p>1. Kirish</p> <p>1.1. Mavzuning dolzarbligi.</p> <p>1.2. Maqolaning aniq maqsadi va yechilishi lozim bo'lgan masalani asoslash.</p> <p>1.3. Maqolada qo'yilgan masalani yechishga boshqa mualliflar qanday yondoshgan, ular qaysi usullarni qo'llagan va b. (adabiyotlar tahlili).</p>
<p>2. Material va metodlar</p> <p>2.1. Olib borilgan tadqiqotning batafsil mazmuni.</p> <p>2.2. Qo'llanilgan metodlar, metodologiya va tadqiqot obyektlarini asoslash.</p>
<p>3. Tadqiqot natijalari</p> <p>3.1. Tadqiqot obyekti tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi tahlili (maqolada qo'yilgan masalani yechishga asos bo'ladigan ma'lumotlar doirasida) va xulosalar.</p> <p>3.2. Olingan ilmiy-amaliy natijalar, ularning samaradorligi va haqqoniyligi tahlili.</p>
<p>4. Tadqiqot natijalari tahlili</p> <p>4.1. Muallif faktlarni tahlil qiladi, o'z fikrini asoslaydi, qaysilarini ma'qullab, qaysilarini inkor etishini aytib o'tadi va fikrlarini izohlaydi.</p> <p>4.2. Tadqiqot davomida yuzaga kelgan, ilm-fan doirasidagi to'siq va muammolar tahlili.</p> <p>4.3. Turli metodlarning tahlili, mazkur tadqiqot natijalarini boshqa tadqiqot natijalari bilan solishtirish.</p>
<p>5. Xulosalar</p> <p>5.1. Muallif tadqiqoti natijalaridan kelib chiquvchi xulosa va takliflar.</p>
<p>Eslatma! Tadqiqotda natijalarni izohlashda mavzuga oid qonunchilik hujjatlari, statistik ma'lumotlar, diagramma va grafiklardan foydalanish tavsiya etiladi.</p>

10. Rasm va jadvallar quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

1-rasm (rasmning nomi)

(Times New Roman, 12 shrift, to‘q qora rangda)

Maqolada rasm bitta bo‘lsa, raqamlanmaydi (Rasm. (nomi)), bir nechta bo‘lsa, raqamlanadi.

Maqoladagi jadval (sxema)ning nomi markaz bo‘ylab tenglashtiriladi. Bunda “Jadval” so‘zi sahifaning o‘ng chekka tomoniga joylashtiriladi. Jadval bitta bo‘lsa raqamlanmaydi, bir nechta bo‘lsa raqamlanadi.

Jadval
yoki
1-jadval

(jadvalning nomi)

(Times New Roman, 12 shrift, to‘q qora rangda)

Times New Roman, 10 shrift									

Jadvalga kiritilgan ma‘lumotlarning mohiyati aniq, qisqa va lo‘nda qilib aks ettirilishi lozim.

11. Jurnal tahririyati mualliflarga zamonaviy axborot manbalari, oxirgi 5–10 yil ichida nashr etilgan ilmiy adabiyot va tadqiqotlardan foydalanishni tavsiya qiladi.

Havolalar to‘rtburchak qavslarda, manbaning tartib raqami va ma‘lumot olingan beti bilan birga keltiriladi, masalan [4, 151-b.].

Maqola va materiallarda iqtiboslar Harvard usulida berilishi lozim.

Maqolada kamida 20 ta manba va adabiyotlarga havolalar keltirilishi kerak.

Xorijiy adabiyotlarga havolalar 50% dan kam bo‘lmasligi, shundan 30% Web of Science va (yoki) Scopus xalqaro ma‘lumotlar bazalariga kiritilgan nashrlarda chop etilgan maqolalarga bo‘lishi kerak.

Maqolada rasmiy hujjatlarga havolalar keltirilmaydi, ular matnning o‘zida, to‘liq holda: sana, raqam va nomi bilan yoziladi.

Manba va adabiyotlar xalqaro ilmiy-texnikaviy ma‘lumotlar bazalari talablariga ko‘ra rasmiylashtiriladi va “References” nomi bilan lotin alifbosida keltiriladi. Matn transliteratsiyasi uchun qo‘llaniladigan tizim: <http://translit.ru>

References quyida ko‘rsatilgan shaklga qat‘iy amal qilingan tartibda yoziladi. Adabiyotlar ro‘yxati maqola matnida keltirilgan havolalar (ssilkalar) bo‘yicha ketma-ketlikda tuziladi (**alifbo ketma-ketligida yoki adabiyot turlariga ajratilgan holda emas!**).

REFERENCES

(Adabiyot, monografiya, to‘plamlar quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Lindorf L.S., Mamikonians L.G., eds. Ekspluatatsiia turbogeneratorov s neposredstvennym okhlazhdeniem [Operation of turbine generators with direct cooling]. Moscow, Energiia Publ., 1972, 352 p.
2. Kanevskaya R.D. Matematicheskoe modelirovanie gidrodinamicheskikh protsessov razrabotki mestorozhdenii uglevodorodov [Mathematical modeling of hydrodynamic processes of hydrocarbon deposit development]. Izhevsk, 2002. 140 p. Izvekov V.I., Serikhin N.A., Abramov A.I. Proektirovanie turbogeneratorov [Design of turbo-generators]. Moscow, MEI Publ., 2005, 440 p.

(Davriy jurnallar quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Zagurenko A.G., Korotovskikh V.A., Kolesnikov A.A., Timonov A.V., Kardymon D.V. Tekhniko-ekonomicheskaya optimizatsiya dizaina gidrorazryva plasta [Techno-economic optimization of the design of hydraulic fracturing]. Neftyanoe khozyaistvo – Oil Industry, 2008, no.11, pp. 54-57.

(Elektron jurnallar quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Kontorovich A.E., Korzhubaev A.G., Eder L.V. [Forecast of global energy supply: Techniques, quantitative assessments, and practical conclusions]. Mineral‘nye resursy Rossii. Ekonomika i upravlenie, 2006, no. 5. (In Russ.) Available at: <http://www.vipstd.ru/gim/content/view/90/278/>. (accessed 22.05.2012)

(Internet manbalar quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Kondrat‘ev V.B. Global‘naya farmatsevticheskaya promyshlennost‘ [The global pharmaceutical industry]. Available at: <http://perspektivy.info/rus/ekob/2011-07-18.html>. (accessed 23.06.2013)

(DOI raqamli manbalar quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Zhang Z., Zhu D. Experimental research on the localized electrochemical micro-machining. Russian Journal of Electrochemistry, 2008, vol. 44, no. 8, pp. 926-930. doi: 10.1134/S1023193508080077

(Konferensiya materiallari quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Sen‘kin A.V. Problemy teorii i praktiki v inzhenernykh issledovaniyakh. [Issues of vibration diagnostics of elastic spacecraft]. Trudy 33 nauch. konf. RUDN [Problems

of the Theory and Practice of Engineering Research. Proc. Russ. Univ. People's Friendship 33rd Sci. Conf.]. Moscow, 1997, pp. 223-225 (In Russ.).

(Tarjima asarlar quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Timoshenko S.P., Young D.H., Weaver W. Vibration problems in engineering. 4th ed. New York, Wiley, 1974. 521 p. (Russ. ed.: Timoshenko S.P., Iang D.Kh., Uiver U. Kolebaniia v inzhenernom dele. Moscow, Mashinostroenie Publ., 1985. 472 p.).

2. Brooking A., Jones P., Cox F. Expert systems. Principles and case studies. Chapman and Hall, 1984. 231 p. (Russ. ed.: Bruking A., Dzhons P., Koks F. Ekspertnye sistemy. Printsipy raboty i primery. Moscow, Radio i sviaz' Publ., 1987. 224 p.).

(Dissertatsiya yoki avtoreferatlar quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Semenov V.I. Matematicheskoe modelirovanie plazmy v sisteme kompaktnyi tor. Diss. dokt. fiz.-mat. nauk [Mathematical modeling of the plasma in the compact torus. Dr. phys. and math. sci. diss.]. Moscow, 2003. 272 p.

(Patentlar quyidagi namuna asosida rasmiylashtiriladi)

1. Palkin M.V. e.a. Sposob orientirovaniia po krenu letatel'nogo apparata s opticheskoi golovkoi samonavedeniia [The way to orient on the roll of aircraft with optical homing head]. Patent RF, no. 2280590, 2006.